



UDK: 070.11:316.77

Sadoqat JALOLOVA,

Magistrant, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: jalolovasadoqat@gmail.com, ORCID: 0009-0009-6266-2628

Dotsent, PhD S.Jumanova taqrizi asosida

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA O'Z JONIGA QASD QILISH MAVZUSINI YORITISH: XALQARO YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON INTERNET NASHRLARI MISOLIDA

Аннотация

Mazkur maqolada ommaviy axborot vositalarida o'z joniga qasd qilish mavzusini yoritishning xalqaro yondashuvlari hamda O'zbekiston internet nashrlari misolida ushbu mavzuning yoritilish amaliyoti tahlil qilinadi. Tadqiqotda Verter va Papageno effektlari media va suitsid o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntiruvchi nazariy asos sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Daryo, Kun.uz kabi ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan materiallar mazmuni, til uslubi, voqea tafsilotlarini yoritish darajasi, vizual kontentdan foydalanish hamda xalqaro jurnalistika tavsiyalariga muvofiqligi qiyosiy tahlil qilinadi. Tahlil natijalari O'zbekiston internet nashrlarida suitsid mavzusini yoritishda rasmiy manbalarga tayanish amaliyoti shakllangan bo'lsa-da, ayrim materiallarda voqea tafsilotlarining ortiqcha yoritilishi, shaxsga oid ma'lumotlarning to'liq ochiq qilinishi va hissiy ta'sirni kuchaytiruvchi vizual materiallardan foydalanish holatlari uchrashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Media etikasi, Verter effekti, Papageno effekti, internet nashrlari, vizual kontent, media tadqiqotlari.

ОСВЕЩЕНИЕ ТЕМЫ СУИЦИДОВ В СМИ: МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПОДХОДЫ И НА ПРИМЕРЕ УЗБЕКСКИХ ИНТЕРНЕТ-ПУБЛИКАЦИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются международные подходы к освещению темы самоубийства в СМИ и практика освещения этой темы на примере узбекских онлайн-изданий. В качестве теоретической основы для объяснения взаимосвязи между СМИ и самоубийством рассматриваются эффекты Вертера и Папагено. Также сравнительно анализируются содержание, стиль языка, уровень освещения деталей события, использование визуального контента и соответствие международным рекомендациям журналистики материалов, опубликованных в социальных сетях, таких как Daryo и Kun.uz. Результаты анализа показывают, что, хотя практика опоры на официальные источники при освещении темы самоубийства в узбекских онлайн-изданиях сформировалась, некоторые материалы содержат чрезмерное освещение деталей события, полное раскрытие личной информации и использование визуальных материалов, усиливающих эмоциональное воздействие.

Ключевые слова: Медиаэтика, эффект Вертера, эффект Папагено, онлайн-издания, визуальный контент, исследование СМИ.

COVERAGE OF SUICIDE IN THE MEDIA: INTERNATIONAL APPROACHES AND THE EXAMPLE OF INTERNET PUBLICATIONS IN UZBEKISTAN

Annotation

This article analyzes international approaches to covering the topic of suicide in the media and the practice of covering this topic on the example of Uzbek online publications. The study considers the Werther and Papageno effects as a theoretical basis explaining the relationship between media and suicide. Also, the content, language style, level of coverage of event details, use of visual content, and compliance with international journalism recommendations of materials published on social networks such as Daryo and Kun.uz are analyzed comparatively. The results of the analysis show that although the practice of relying on official sources in covering the topic of suicide in Uzbek online publications has been formed, some materials contain excessive coverage of event details, full disclosure of personal information, and the use of visual materials that enhance the emotional impact.

Key words: Media ethics, Werther effect, Papageno effect, online publications, visual content, media research.

Kirish Ommaviy axborot vositalarida o'z joniga qasd qilish mavzusini yoritish jurnalistikaning eng murakkab va mas'uliyat talab qiladigan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday xabarlar nafaqat axborot berish vazifasini bajaradi, balki jamiyatning ruhiy holati, jamoatchilik fikri va ayrim ijtimoiy guruhlarining xulq-atvoriga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin [1]. Shu sababli mazkur mavzuni yoritishda jurnalistlardan voqeani tezkor yetkazish bilangina cheklanmay, uning ehtimoliy oqibatlarini ham hisobga olish talab etiladi. Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, suitsid haqidagi materiallarning mazmuni, sarlavhasi, til uslubi hamda vizual yechimlari ayrim hollarda yangi suitsid holatlarining yuzaga kelishiga yoki, aksincha, ularning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Aynan shu jihat media etikasi va jurnalistika

standartlarini mazkur mavzuda alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda suitsid mavzusining ommaviy axborot vositalarida yoritilishi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar media ta'sirining ikki asosiy ko'rinishini ajratib ko'rsatadi. Ular Verter effekti va Papageno effekti nomlari bilan mashhur bo'lib, bugungi kunda xalqaro jurnalistika amaliyotida muhim nazariy asoslardan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur nazariyalarni nafaqat jurnalistlar, balki media tadqiqotchilari, psixologlar va sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari tomonidan ham keng qo'llaniladi. Chunki ular ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan axborotning inson ruhiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Verter effekti Iogann Volfgang fon Gytotening “Yosh Verterning iztiroblari” asari bilan bog‘liq. Tarixiy manbalarga ko‘ra, roman nashr etilgandan so‘ng uning bosh qahramoni singari o‘z joniga qasd qilgan yoshlar soni ayrim Yevropa davlatlarida ortgani kuzatilgan. Mazkur hodisa keyinchalik media va ommaviy madaniyatning inson xulq-atvoriga ta‘sirini o‘rganishda muhim misollardan biri sifatida qaralgan. San-Diyegodagi Kaliforniya universiteti professori Devid P. Fillips ushbu hodisani chuqur o‘rganib, 1974-yilda “Verter effekti” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi [2]. Shundan so‘ng ushbu tushuncha ommaviy axborot vositalarida suitsid haqidagi materiallarning salbiy ta‘sirini ifodalovchi ilmiy termin sifatida qo‘llanila boshlandi.

Bugungi kunga kelib turli mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar Verter effektining mavjudligini tasdiqlovchi qator dalillarni keltirib chiqardi. Xususan, mashhur shaxslarning o‘z joniga qasd qilgani haqidagi xabarlar yoki voqeaning batafsil tasvirlangan materiallari e‘lon qilinganidan keyin ayrim hududlarda suitsid ko‘rsatkichlari vaqtinchalik oshgani kuzatilgan [3, 7]. Tadqiqotchilar bunga sabab sifatida hodisaning haddan tashqari dramatik tarzda yoritilishi, usulning batafsil tavsiflanishi yoki marhum shaxsning ideallashtirilishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, hissiy jihatdan zaif yoki ruhiy tushkunlikni boshdan kechirayotgan insonlar bunday materiallardan salbiy ta‘sirilanishi ehtimoli yuqori ekanini ta‘kidlanadi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ommaviy axborot vositalari faqat salbiy ta‘sir ko‘rsatishi emas, balki suitsidning oldini olishda ham muhim vosita bo‘lishi mumkinligi qayd etiladi. Bu yondashuv Papageno effekti orqali izohlanadi. Mazkur atama Motsartning “Sehrlil nay” operasidagi Papageno obrazi bilan bog‘liq bo‘lib, asarda qahramon og‘ir ruhiy holat sabab hayotiga nuqta qo‘yishni rejalashtiradi. Biroq yaqinlarining qo‘llab-quvvatlashi va muammoning boshqa yechimlari mavjudligini anglagach, bu fikridan voz kechadi. Aynan shu syujet media tadqiqotlarida insonlarga umid uyg‘otuvchi va muqobil yechimlarni ko‘rsatadigan axborotlarning ijobiy ta‘sirini ifodalovchi ramziy tushunchaga aylangan.

Papageno effekti ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy mas‘uliyatini namoyon etuvchi yondashuv sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ruhiy inqirozni yengib o‘tgan insonlarning tajribasi, psixologik yordam olish imkoniyatlari yoki muammoni hal etishning boshqa yo‘llari haqida tayyorlangan materiallar suitsid xavfini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin [1]. Shu sababli Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti, UNESCO va boshqa xalqaro institutlar jurnalistlarga suitsid mavzusida aynan shunday yondashuvni tavsiya etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi. Tahlil obyekti sifatida O‘zbekistonning Daryo va Kun.uz internet nashrlarida 2021–2023-yillarda e‘lon qilingan suitsid bilan bog‘liq materiallar tanlab olindi.

Materiallar quyidagi mezonlar asosida baholandi:

xabarlarining til uslubi;
voqea tafsilotlarini yoritish darajasi;
vizual materiallardan foydalanish;
shaxsga oid ma‘lumotlarni oshkor etish darajasi;
xalqaro media tavsiyalariga muvofiqligi;

Verter va Papageno effektlari nuqtayi nazaridan xabarlarining ehtimoliy ta‘siri.

Mazkur metodologik yondashuv O‘zbekiston internet nashrlarida suitsid mavzusini yoritish tendensiyalarini aniqlash va ularni xalqaro standartlar bilan qiyoslash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro media qo‘llanmalarida suitsid haqidagi materiallarni tayyorlashda bir qator tamoyillarga amal qilish zarurligi qayd etiladi. Jumladan, voqea

sodir etilgan usulni batafsil tasvirlamaslik, hodisa joyini aniq ko‘rsatmaslik, sarlavhalarda sensatsion iboralardan foydalanmaslik, marhum shaxsni qahramon sifatida tasvirlamaslik hamda foto va videolarni ehtiyotkorlik bilan tanlash tavsiya etiladi [1]. Bundan tashqari, imkon qadar ruhiy salomatlik bo‘yicha mutaxassislar fikrini berish, yordam xizmatlari haqida ma‘lumot keltirish va o‘quvchilarga muammoning yechimi mavjudligini eslatish tavsiya qilinadi [1].

Mazkur nazariy yondashuvlar O‘zbekiston internet nashrlarida suitsid mavzusining qanday yoritilayotganini tahlil qilishda ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi yillarda mamlakat internet nashrlarida o‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq xabarlar soni ortib borayotgani kuzatilmog‘da. Bunday materiallar, odatda, tezkor axborot janrida tayyorlanib, rasmiy idoralar ma‘lumotlariga tayanadi. Biroq ayrim hollarda voqea tafsilotlarining ortiqcha yoritilishi, shaxsga oid ma‘lumotlarning to‘liq ochiqqlanishi yoki hissiy ta‘sirni kuchaytiruvchi vizual materiallardan foydalanilishi xalqaro media etikasi nuqtayi nazaridan muhokama talab qiladigan masalalarni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonning Daryo, Kun.uz kabi internet nashrlarida e‘lon qilingan materiallar tahlil qilinadi. Tahlil davomida xabarlarining til uslubi, voqea tafsilotlarini taqdim etish darajasi, vizual kontentdan foydalanish, shaxsga oid ma‘lumotlarni ochiqqlash hamda xalqaro tavsiyalarga muvofiqligi qiyosiy jihatdan baholanadi. Bunday yondashuv O‘zbekiston internet nashrlarida suitsid mavzusini yoritishda mavjud tendensiyalarni aniqlash, ularning kuchli va zaif tomonlarini baholash hamda jurnalistik amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

2021-yil mart oyida Kun.uz nashri Navoiy viloyatida sodir bo‘lgan hodisa haqida xabar bergan [4]. Unda Navbahor tumanining “Sovungar” mahallasida yashagan 1989-yilda tug‘ilgan Z. Jabborova ismli ayol o‘zi va uch nafar qizini temiryo‘l iziga olib chiqib, poyezd ostiga tashlagani haqida ma‘lumot berilgan. Xabarda hodisa joyi, sana va shaxsga oid ma‘lumotlar aniq ko‘rsatiladi. Masalan, ayolning yoshi, yashash manzili, turmush o‘rtog‘ining familiyasi, hatto oilaviy muammolari haqida ham batafsil yozilgan. Xususan, materialda turmush o‘rtog‘i ayolni o‘g‘il farzand tug‘magani uchun ayblab kelgani, bu esa ayol ruhiyatiga ta‘sir qilgani aytiladi. Shuningdek, ayolning homiladorligi, keyinchalik homilasini oldirgani kabi shaxsiy tafsilotlar ham keltirilgan.

Til va uslub jihatidan Kun.uz materialida rasmiy axborot uslubi saqlangan. Xabar asosan rasmiy manbalar, Senat axborot xizmati hamda mahalla vakillarining ma‘lumotlariga tayanadi. Biroq jurnalistik etika nuqtayi nazaridan qaralganda, hodisaning batafsil tasvirlanishi, shaxsning to‘liq identifikatsiyasi va suitsid sababining aniq ko‘rsatilishi ayrim savollarni keltirib chiqaradi. Chunki media tadqiqotlarida suitsidni aniq sabab bilan izohlash ehtiyotkorlik bilan qo‘llanishi kerakligi qayd etiladi. Bunday yondashuv auditoriyada hodisani soddalashtirilgan tarzda tushunishga olib kelishi mumkin.

2021-yil iyul oyida Daryo internet nashrida Qashqadaryo viloyatida sodir bo‘lgan hodisa haqida ham xabar [5] e‘lon qilingan. Unda Chiroqchi tumanida yashagan ayol o‘zi va ikki nafar farzandini temiryo‘l iziga tashlagani oqibatida halok bo‘lgani haqida ma‘lumot beriladi. Xabarda hodisa 11-iyul kuni sodir bo‘lgani, holat yuzasidan Qarshi transport prokuraturasi tomonidan Jinoyat kodeksining 97-moddasi 2-qismi “a” bandi — ikki yoki undan ortiq shaxsni qasddan o‘ldirish alomatlari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgani qayd etilgan. Shuningdek, materialda ayolning turmush o‘rtog‘i

Rossiyada ishlayotgani, voqea esa qaynata bilan kelib chiqqan oilaviy mojaro ortidan yuz bergani aytiladi.

Xabar mazmuniga e'tibor qaratsa, unda hodisa sababi sifatida aynan oilaviy kelishmovchilik ko'rsatilgani kuzatiladi. Materialda "kelin qaynatasi bilan janjallashib qolib, o'zi va ikki nafar farzandini poyezd tagiga tashlagan" degan jumla orqali voqea sababi aniq shaklda bayon etilgan. Media tadqiqotlarida esa suitsid yoki suitsidga urinish holatlarini bitta sabab bilan izohlash ehtiyotkorlik bilan qo'llanishi kerakligi ta'kidlanadi. Chunki bunday hodisalar odatda bir nechta ijtimoiy, psixologik va shaxsiy omillar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli voqeani faqat bitta sabab bilan tushuntirish auditoriyada sodda va bir tomonlama tasavvur shakllanishiga olib kelishi mumkin.

Materialning yana bir e'tiborga molik jihati — xabarga ilova qilingan vizual tasvirdir. Nashrda hodisa bilan bog'liq suratlar xiralashtirilgan holda berilgan bo'lsa-da, tasvirda temiryo'l izida halok bo'lgan ayol va bolalarning tanalari ko'rinib turadi. Tasvir texnik jihatdan xiralashtirilgan bo'lsa ham, umumiy mazmuni bir qarashda anglashiladi va u o'quvchi ruhiyatiga kuchli hissiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jurnalistik etika nuqtayi nazaridan qaralganda, suitsid bilan bog'liq hodisalarda bunday vizual materiallardan foydalanish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Chunki voqea joyidan olingan tasvirlar, ayniqsa halok bo'lgan shaxslarning tanasi aks etgan fotosuratlar, auditoriyada salbiy psixologik ta'sir uyg'otishi mumkin. Shu sababli xalqaro media tavsiyalarida suitsid yoki o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq voqealarni yoritishda bunday tasvirlarni e'lon qilmaslik yoki ularni minimal darajada ishlatish tavsiya etiladi.

2023-yil aprel oyida Toshkent shahrining Sergeli tumanida sodir bo'lgan hodisa ham O'zbekiston internet nashrlarida keng yoritildi. Daryo nashrida e'lon qilingan xabarda [6] 1996-yilda tug'ilgan A.D. ismli ayol o'zi va uch

nafar farzandini 9-qavatdan tashlab yuborgani haqida ma'lumot beriladi. Xabarda voqea sodir bo'lgan aniq vaqt — soat 19:20, joy — Sergeli tumani 8-mavze, shuningdek farzandlarning yoshi ham batafsil keltirilgan. Materialda ayolning oilaviy sharoiti haqida ham ma'lumot berilib, u avval turmush o'rtog'i bilan Zangiota tumanida yashagani, keyinchalik yong'in sabab onasining uyiga ko'chib o'tgani yoziladi. Ushbu holatlar ayol ruhiyatiga salbiy ta'sir qilgan bo'lishi mumkinligi ta'kidlanadi.

Daryo nashrining shu voqea bo'yicha tayyorlagan qo'shimcha materialida jurnalist voqea sodir bo'lgan mahallaga borib, qo'shnilar va mahalla vakillari bilan suhbatlashadi. Masalan, qo'shnilardan biri marhumaning bir necha oy oldin onasining ko'chib kelgani haqida gapiradi. Mahalla faollari esa oiladagi vaziyat haqida turli fikrlarni bildiradi. Materialda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan ayrim taxminlar ham keltiriladi, masalan, ayolning eri bilan munosabatlari yoki u yashagan uyda yong'in sodir bo'lgani haqidagi ma'lumotlar.

Mazkur material til jihatidan oddiy va tushunarli yozilgan bo'lsa-da, unda voqea tafsilotlari juda batafsil berilgani kuzatiladi. Ayniqsa, bolalarning qanday tartibda derazadan tashlangani haqida ketma-ket bayon qilinishi xalqaro dramatik tusga kiritadi. Bundan tashqari, shaxsga oid ma'lumotlar, yashash manzili, qo'shnilar fikri kabi tafsilotlarning keng berilishi jurnalistik etika nuqtayi nazaridan bahsli hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalari O'zbekiston internet nashrlarida e'lon qilingan ayrim materiallarni Verter va Papageno effektlari asosida tahlil qilish ularning xalqaro jurnalistika tavsiyalariga qay darajada mos kelishini baholash imkonini beradi. Quyida Daryo, Kun.uz hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilingan ayrim materiallar misolida mazkur masalaning amaliy jihatlari ko'rib chiqiladi.

ADABIYOTLAR

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Preventing suicide: A resource for media professionals. — Jeneva, 2023.
2. Phillips D.P. The influence of suggestion on suicide: Substantive and theoretical implications of the Werther effect // American Sociological Review. — 1974. — 39-jild, №3.
3. Niederkrotenthaler T., Till B. Suicide and the media: From Werther to Papageno effects // Journal Suicidologi. — 2019. — 24-jild, №2.
4. Navoiyda o'zi va uch qizining joniga qasd qilgan ayol voqeasi. Eri uni o'g'il tug'maslikda ayblab kelgan. — Kun.uz. <https://kun.uz/news/2021/03/27/navoiyda-oz-i-va-uch-qizining-joniga-qasd-qilgan-ayol-voqeasi-eri-uni-ogil-tugmaslikda-ayblab-kelgan>
5. Qashqadaryoda qaynatasi bilan tortishib qolgan kelin o'zi va ikki farzandini poyezd tagiga tashlab, vafot etdi. — Daryo. <https://daryo.uz/2021/07/15/qashqadaryoda-qaynatasi-bilan-tortishib-qolgan-kelin-oz-i-va-ikki-farzandini-poyezd-tagiga-tashlab-vafot-etdi/>
6. Toshkentda uch nafar farzandi bilan o'zini 9-qavatdan tashlagan ayol onasining uyida yashab kelgan. — Daryo. <https://daryo.uz/2023/04/04/toshkentda-uch-nafar-farzandi-bilan-ozini-9-qavatdan-tashlagan-ayol-onasining-uyida-yashab-kelgan>